

2025-2026-o'quv yilida umumta'lim maktabi 9-sinf o'quvchilarining I chorakda informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun BSB topshiriqlari va mezonlari

I chorak 1-BSB (Demo)

Jami: [50 ball]

1-topshiriq.



- Ushbu rasmda tasvirlangan ichki qurilmalardan qaysi biri kompyuter tezkorligi va ishlash tezligiga eng bevosita ta'sir qiladi? Nima uchun?

- RAM ish faoliyatida muammo yuzaga kelganda, bu rasmdagi qaysi komponent vaqtincha "xotira" funksiyasini bajarishga harakat qiladi?

2-topshiriq.

Siz scratch dasturida kichik robotni boshqarish poygasi dasturini tuzdingiz.

1. Robotga buyruqlarni qaysi kiritish qurilmasi orqali berasiz?
2. Robotning javobini qanday chiqarish qurilmasi orqali kuzatasiz?

@organish_uzb

3-topshiriq.

Bir IT markazidagi kompyuterlar uchun xotira qurilmasini tanlash kerak. Sizdan maslahat so'rashdi.

1. **SSD va HDD** o'rtasidagi asosiy farq nimada?
2. Tez ishlash uchun qaysi birini tavsiya qilasiz?
3. Katta hajmdagi arxiv fayllarni saqlash uchun-chi?

Test-uz.ru

4-topshiriq.

Bir guruh o'quvchilar kompyuter sinfida "Kiber musobaqa" o'tkazmoqchi. Har bir kompyuter bir-biriga ulanib, o'yinlar va fayllar almashishi kerak. Lekin ulanish vositalarini tanlashda turli fikrlar yuzaga keldi.

- Agar siz **router** o'rniga **hub** ishlatsangiz, internet tezligi qanday bo'ladi?
- Agar **Wi-Fi** ishlamasa, qanday noqulaylikka duch keladi?
- Agar faqat **bluetooth** qolsa, qanday jarayonni to'g'irlash imkoni mavjud?

5-topshiriq.

Rustam ustozidan **Zoom** havolasini oldi. Havola quyidagicha:

<https://zoom.us/j/123456789>

Ammo Rustam URL manzilini brauzerga kiritayotib, faqat **zoom.us** qismini yozdi.

Savollar:

1. Rustam yozmagan URL manzil qismi nimani anglatadi?
2. Agar u faqat "**zoom.us**"ni yozsa, nima sodir bo'ladi?
3. **https://** qismi URL manzilda nimani bildiradi?